BADIIY ADABIYOTLAR VOSITASIDA NUTQ KAMCHILIGIGA EGA BO‘LGAN BOLALARNING BOG‘LANGAN NUTQINI RIVOJLANTIRISH

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Maxsus pedagogika yo‘nalishi 4-bosqich talabasi
To‘xtaboyeva Inobat Norsoat qizi

Annotatsiya Ushbu maqolada nutq kamchiliklariga ega bo‘lgan bolalarni nutqning leksik-grammatik tomonlarini shakllantirish va bog‘langan nutqni rivojlantirishga qaratilgan logopedik mashg‘ulotlarda so‘z, jumla va bog‘langan nutqni rivojlantirish asosida tuzilgan korreksion ish tizimi bo‘yicha metodik tavsiyalar berilgan. Nutq samarali rivojlanishi uchun nafaqat nutqiy , balki predmet faoliyatni ham aniqlash va bog‘langan nutqni grammatik jixatidan to‘g‘ri qo‘llanilishiga qaratilgan ishlar tizimi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Nutq, individual, leksik-grammatik komponent, reaksiya, sinonim va antonim, tovushlar talaffuzi,surat, xikoya, logoped, individual, frontal, personaj.

Ma’lumki, bolaninng nutqiy va individual xususyaitlarini xisobga olgan xolda maxsus tashkilllantirilgan korreksion logopedik ish muxim axamiyatga egadir.Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar bilan olib borilidan ta’lim samarali bo‘lishida dastlab, bola soni bir-ikkitani tashkil etish lozim. (ta’limning dastlabki ikki oyida). Bolalarga alohida-alohida yondoshish natijasida berilgan materialni yanada yaxshiroq o‘zlashtiradilar.

Bolalar qiziqish va faolliklarni oshirishda mashg‘ulotlar o‘yin tarzida tuzilishi kerak. Korreksion ishlarda bolaning tasavvur va qiziqishlari rivojlantirib boriladi. Buning uchun turli hil qiziqishlari vaziyat shakllarini qo‘llash kerak bo‘ladi. Bu esa bolaning nuqiy faoliyatini yanada faollashtirishga yordam beradi. Rag‘batlantirish sifatida quyidagilarni kiritishi mumkin: rasmlar, bayroqchalar, yulduzchalar, turli xil ramzlar, suratlar, logopedning rasmiy baholashi, bolalar qarsagi, og‘zaki maqtov, qo‘g‘irchoqli personajning qo‘l orqali tabrigi va hokazolar.

Nutqning leksik-grammatik tomonlarini shakllantirish va bog‘langan nutqni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlarda logoped quyidagilarga amal qilishi kerak:

-mashg‘ulot mavzuvsi va maqsadini aniqlash;

-bolalar faol nutqida o‘zlashtirish lozim bo‘lgan lug‘ati, so‘z boyligini aniqlash;

-bolalarning nutqiy va psixologik imkoniyatlariga individual yondashishi va korreksion ta’lim bosqichlarida mashg‘ulotlar mavzu va maqsadlarini leksik va grammatik materiallarni hisobga olgan holda tanlash;

-har bosqich maqsadlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi va mashg‘ulotning asosiy bosqichlarini qo‘yilgan maqsadga mazmunan moslashishi;

-nutqiy va nutqiy tafakkur topshiriqlarni sekin-asta murakkablashtirib borilishini ta’minlash;

-mashg‘ulotda o‘zining hamda o‘rtoqlarining faoliyatini nazorat qilish uchun musobaqa elementlari mujassamlashgan turli o‘yinlar va didaktik mashqlarni kiritish;

-dastur materialini tanlashda maktabgacha yoshdagi bola rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari, tafakkur, fikrlash qobiliyatining ehtiyojlarini hisobga olish;

-atrof-olam haqidagi bilimlarni faol o‘zlashtirilishi maqsadida kerakli usullarni tanlash va individual yondoshish;

-o‘zlashtirilgan nutqiy materiallari qayta-qayta takrorlanishini mashg‘ulotlarga kiritish.[1]

Logopedik mashg‘ulotlar so‘z, jumla va bog‘langan nutqni rivojlantirish asosida tuzilgan korreksion ish tizimi bo‘yicha olib boriladi.

Frontal mashg‘ulotlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

A)nutqning leksik-grammatik komponentlarini rivojlantirish;

B)diogogik va monologik nutqni rivojlantirish;

V) nutqning ravon, aniqligini ta’minlashda tovushlar talaffuzini rivojlantirish;

G) savod elementlarini o‘rganish

Mashg‘ulotlarni tashkil etishga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. O‘quv yili boshlaridanoq bolalarda tashkiliy ko‘nikmalar tarbiyalash lozimki, ular jamoaviy nutqiy bolarga mashg‘ulot paytida erkin joylashi (doira, yarim doira shaklida, logoped yonida) imkonini berish lozim, toki ular o‘rganilayotgan predmetlarni ko‘rishi, bir-biriga logopedga qvarashi qulay bo‘lsin, bu bilan o‘zgalar nutqini idrok etish to‘liqligi ta’minlanadi. Bu o‘z navbatida, ta’limda katta samaradorlikka erishishda ko‘maklashadi.[2]

Mashg‘ulot strukturasini belgilashda emotsional momentlarni shunday tizimlash kerakki, eng qiziq ish frogmetlari toliqish kuchayadigan paytlarga to‘g‘ri kelsin.

Ish jarayonida, tabiiyki, bolada qiyinchilik va noto‘g‘ri javoblar yuzaga keladi. Bu holda logoped bolada salbiy reaksiya uyg‘otadigan e’tirozlar bildirmasligi lozim. Xatoning to‘g‘irlashning turli variantlari mavjud:

A) mashg‘ulot davomida bola javobini to‘g‘irlash;

B) barcha bolalar diqqatini berilgan javobga tortish, uning to‘g‘ri yoki xato ekanligini aniqlash;

V) bolalardan biriga xatoni to‘g‘irlashni taklif etish;

G) to‘g‘ri javobni xor bo‘lib takrorlash, qiyin xato qilgan bola bilan yakka takrorlash.

Bunda bolalarning xatolar ustida ishlashi ongli xarakter kasb etishi va jamoaviy taxlil shaklida bo‘lishi lozim.

Tilning leksik-grammatik vositalarini shakllantirish va bog‘lanishli nutqni rivojlantirish bo‘yicha frantal mashg‘ulotlar xaftasida 2 marta o‘tkaziladi. Koreksion ta’lim o‘z ichiga oladi:

-og‘zaki nutqni tushunishni rivojlantirishga qaratilgan nutqni eshita olish malakasi, predmet, xarakat, belgi nomlarini ajratish, so‘zning umumlashtiruvchi ma’nosini tushunish;

-muloqotning dialgogik shaklini egallashga tayyorlash;

-kichraytirish erkalash qo‘shimchali otlarni qo‘llab so‘zlar yasashning ayrim usullarnip amaliy o‘zlashtirish;

-birlik va ko‘plikdagi otlar, hozirgi va o‘tgan zamondagi, fe’llar, tushum va boshqa kelishikdagi otlardan foydalanib so‘z o‘zgartirishning ayrim usullarini amaliy egallash;

-fe’l shaklini o‘zgartira olish (2 shaxs birlik buyruq istak mayli shaklini 3 shaxs birlik hozirgi zamon shakliga); (uxla-uxlayapti; ich-ichayapti);

-savollar, xarakatlar namoyishi, rasmlar, modellar bo‘yicha sodda gaplar tuzish ko‘nikmalarini egallash:

A) bosh kelishikdagi ot+vositasiz to‘ldiruvchi+fe’l; onam choyni damladi;

B) ot bosh kelishikda+fe’lga tobe 2 ta ot+fe’l: ona ko‘ylakni kimga tikdi? – qizga, qo‘g‘irchoqcha.[3]

Lug‘atni shakllantirish bo‘yicha mashg‘ulotlar nutqda kichraytirish-erakalish otlarini amaliy qo‘llash ustida ishni ko‘zda tutadi. Bu mavzularda morfologiya sohasida tilni tushunish, seziishni rivojlantirish uchun imkoniyatlapr kattta.Nutqning grammatik to‘g‘riligini shakllantirish leksika va fonematikadan egallangan materialni asosida amalga oshiriladi. U so‘z shakllarini farqlash va qiyoslash mashqlaridan boshlanadi. Bolalarni otlarni fe’llarning oxirini eshita olish, bir so‘zning o‘zida kelishik qo‘shimchalarni eshita bilishga o‘rgatish zarur tajriba ko‘rsatadiki, bosh shaklini yangisi bilan qiyoslash bolalarni bu shakllarni og‘zaki nutqida to‘g‘ri qo‘llashga tayyorlaydi.

Mashg‘ulotlarda so‘zlashuv nutqida ko‘p qo‘llaniladigan kelishik shakllari ishlanadi. Tilning leksik-grammatik qurilishini amaliy o‘zlashtirishga oid barcha ishlar gaplarning turli tillari shaklanishi uchun asos vazifalarni o‘taydi.

Bolalar sodda gaplarni (yig‘iq va yoyiq) to‘g‘ri ko‘ra va nutqida qo‘llay olishi uchun barcha so‘zlar tushunarli bo‘lishi muhim. Logoped gapda so‘z tarkibini kuzatadi (zurur xollarda savollar yordamida to‘g‘irlaydi). Bolalarda uyushiq, ega, kesim, to‘ldiruvchilarni topish va boshqalar taklif etiladi.[4]

Bolalarning so‘zning umumlashma ma’nosini tushunishga o‘rgatiladi (masalan, barcha plastmassa, yog‘och, qog‘ozdan yasalgan buyumlarni tanlash topshiriladi va sh.k) faqat shundan keyin otlardan nisbiy sifat yasash taklif etiladi. Bolalar so‘zni diqqat bilan eshitishga o‘rgatiladi. Lug‘at ishi so‘zning grammatik shakllarini amaliy o‘zlashtirish bilan uzviy bog‘liq. So‘z birikmalarida predmetlar belgisini farqlash va ajratish so‘zlarni eshita bilishni talab qiladi. Gaplar tuzish va uyushiq bo‘laklarni kiritish’xisobiga kengaytirish (yoyishga). Bu gaplarni kichik xikoyaga birlashtirish ta’limning 2 davri mashg‘ulotlari tizimida katta o‘rin egallaydi. Ayni paytda rasmlar va rasmlar to‘plami (seriya) asosida hikoya tuzish ko‘nikmalarini egallash bo‘yicha mashqlar uchun alohida vaqt ajratiladi.Statik suratlar xikoya tavsif uchun asos bshla oladigan didaktik materiallarni shz ichiga oladi. Bolalarga buyum (o‘yinchoq) ni ko‘rib olish, logoped yordamida uning asosiy sifatlari (rangi, kattaligi, shakli, materiali0ni ajratish, uning vazifasini aniqlash taklif etiladi. Shundan so‘ng bola logoped taklif etgan reja aososida kichik hikoya tuzadi. Keyinchalik yuzaga kelgan xollarda logoped o‘z hikoya tavsifi namunasini beradi, bola uni qaytaradi, keyin boshqa buyum (o‘yinchoq) bilan aynan shunday ish amalga oshiriladi, biroq bola ko‘proq mustaqil bo‘lishi ko‘zda tutiladi (o‘zi hikoya tuzadi, rejadan foydalanib).[5]

Syujetli su’ratlar bolaga ularda aks ettirilgan xodisalarni izchil almashadigan vaziyatlarni xikoya qiish imkonini beradigan didaktik materialni o‘z ichiga oladi.

Rasm asosida hikoya tuzishdan avval:

A)sur’at yaxshilab o‘rganiladi (qaraladi);

B)ayrim so‘zlarni tushunish aniqlashtiriladi;

V) sur’at mazmunini tushunganlikni aniqlash maqsadida savollar asosida suxbat o‘tkaziladi.Keyin reja beriladi. Unga tayanib bolalar xikoya tuzadi.

Nutq samarali rivojlanishi uchun nafaqat nutqiy , balki predmet faoliyatni ham aniqlash va boyitish zarur. Bola o‘zi yaxshi bilgannarsa haqida ishonchli va to‘liq hikoya qiladi shaxsiy tajriba va nutqiy material o‘rtasidagi aloqalar o‘rnatish yangini o‘zlashtirishga ko‘maklashadi, boladan xodisa, faktlarni yodga olish. Ma’lum

irodaviy say-xarakatlarni talab etadi, bu uning mashg‘ulotlarda faolligini quvvatlaydi. Logopedik mashg‘ulotlar samaradorligini zarur sharti nutqiy mashqlar sitemasi qo‘llanilishi va ularning variativligidir. Nutqiy mashqlar murakkabligi ortib boradigan tartibda shakllantiriladi, ular aniq ifodalangan maqsadga ega bo‘ladi, izchil retseptiv, reproduktiv, produktiv va integrativ harakterga ega bo‘ladi. Logoped bolalar e’tiborini muntazam ravishda o‘rganilayotgan amaliy til qonuniyatlariga qaratib, bu bilan ko‘chish xissini tarbiyalaydi. Lug‘atni boyitish yangi so‘zlarni o‘zlashtirish, ma’lum bo‘lganlarini tushunishni chuqurlashtirish, ularni qirralarini, farqlarini aniqlashtirish, sinonim va antonimlarni tanlashni o‘z ichiga oladi. Bolalarni turli so‘zlarning ma’nolari, ko‘p ma’nologi, o‘xshash va qarama qarshi ma’noli so‘zlar bilan tanishtirishni logoped qiziqarli o‘yin vaziyatlarini qo‘llash bilan amalga oshiradi. Qarama-qarshi ma’noli so‘zlarni tanlayotib, bolalarni turli predmet va hodisalarni qiyoslashga o‘rgatiladi:

A) vaqt (kun-tun, tong-oqshom);

B)makon(yaqin-uzoq);

V) tabiat xodisalari (qorong‘i-yorug‘);

G)ta’m, og‘irlik, katalikka ko‘ra nisbatlanish (nordon-shirin, og‘ir-yengil, keng-tor). [6]

Ayni paytda logopedik mashg‘ulotlarga bolalar aniq, mazmuniga ko‘ra mos so‘zlarni topishga o‘rgatadigan mashqlar kiritiladi. Sinonimlarni qo‘llash nutqda takrorlardan qutilish imkonini beradi va bolalar jumlalarni yanada aniq va mazmunli(xajmli) qiladi. Kundalik muloqotga umumiy tushunchalar kabi, so‘z ma’no qirralarini ifodalovchi sinonimlar ham kiritiladi (qizil, pushti, och qizil; suv – shildiraydi, sharillaydi va x.k.)

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Шомахмудова Р.М., Мўминова Л.Р. Боғча ва кичик мактаб ёшидаги болалар талаффузидаги нуқсонларни тузатиш.-Т.: Ўқитувчи, 1992.- 86 б.

2. Mo‘minova L.R., Ayupova M.Y. LogopediY. T., 1993 y.

3.Shomaxmudova R., L.Mo‘minova. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. T., O‘qituvchi. 1995 y.

Чивикова Н.Ю. Как подготовить ребёнка к школе. - М.: 2001

5.Нищева Н.В. Система коррекционной работы в логопедической группе для детей с общим недоразвитием речи. – СПБ.: 2001.

6. Филичёва Т.Б. Особенности формирования речи детей дошкольного возраста. – М.: 2000.